

## Axborot tashuvchilar

Inson axborotni eslab qolish va uni boshqa odamlarga yetkazishga harakat qiladi. Ilgari odamlar axborotlarni yozishda loy yoki mumdan yasalgan taxtachalar, teri va qog'ozlardan foydalanganlar. Hozirgi kunda odamlar axborotlarni saqlash uchun elektron axborot tashuvchilar – **mobil telefon, flesh-xotira va CD-disklardan** foydalanadilar.



**Biror-bir axborot saqlanadigan obyekt axborot tashuvchi deb ataladi.**



**Kitob va daftar qog'ozli axborot tashuvchilar, CD-disk va fleshka esa elektron axborot tashuvchilar hisoblanadi.**



- Ushbu axborot tashuvchilarda qanday axborotlar saqlanishini aniqlang.



**Qadimda axborot tashuvchilar qanday bo'lganini ko'rib chiqing.**



Mumdan yasalgan  
taxtacha



Teri



Loydan yasalgan  
lavha



- Savollarga javob bering.

- Axborot tashuvchilar deb nimalarga aytildi?
- Qog'ozli axborot tashuvchilarda qanday axborotlar saqlanadi?
- Elektron axborot tashuvchilarda nimalarni saqlash mumkin?

